

**ISLOM BANK TIZIMINING AN'ANAVIY BANKLARDAN FARQLI
JIHATLARI**

To'xtayeva Umida Shamsiddin qizi

Toshkent shahar Toshkent Moliya instituti

Magistratura va kechki ta'lim fakulteti KBIA 72guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Islom moliyasi tizimi, uning o'ziga hos jihatlari hamda Islom tamoyillariga asoslangan bank tizimining an'anaviy banklar bilan bog'liq va farqli tomonlari ko'rib chiqilgan. Shu jumladan, Islom bank tizimi xizmatlari rivojlanishi bilan bog'liq muammolar ko'rib aniqlangan va ularni hal qilishga doir takliflar ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: ITB (Islom Taraqqiyot Banki), islomiy moliyalashtirish, sherikchilik, qarz, foiz, an'anaviy moliyalashtirish, islomiy va an'anaviy lizing, investitsiya, jamg'arma.

Аннотация: В данной статье рассматривается исламская финансовая система, ее специфические аспекты и взаимосвязи и отличия банковской системы, основанной на исламских принципах, с традиционными банками, в том числе развитие исламских банковских услуг, выявлены проблемы и внесены предложения по их решению.

Ключевые слова: ИТБ (Исламский банк развития), исламские финансы, партнерство, долг, проценты, традиционное финансирование, исламский традиционный лизинг, инвестиции, сбережения.

Abstract: This article discusses the Islamic financial system, its specific aspects and aspects of the Islamic banking system related to and different from traditional banks. Problems related to the development of Islamic banking services have been identified and suggestions for their solution have been made.

Keywords: ITB (Islamic Development Bank), Islamic finance, partnership, debt, interest, traditional financing, Islamic and traditional leasing, capital, savings.

1. Kirish.

Bugungi kunda, butun jahon miqyosida bank-moliya tizimini sifat va salohiyat jihatdan mustahkamlash dolzarb masalalardan biriga aylandi. Banklar iqtisodiyotni harakatga keltiruchi eng katta kuch bo'lib, uning ko'plab investitsiyalarni o'ziga jalb qilishi asosiy masala hisoblanadi. Bundan ko'rinib turibdiki, har qanday davlatning iqtisodiy barqarorligi bank-moliya tizimi bilan uzviy bog'liq. Iqtisodiy rivojlanishni kuchaytirish maqsadida an'anaviy banklarga raqobatchi sifatida islom banklari ham bugungi kunda keng rivojlanmoqda. So'nggi yillarda Islom banklari o'zining faoliyat mexanizmlariga yuqori darajada qiziqish hamda globallashtiruvning o'sishi bilan bog'liq

holda,shiddatli rivojlanishni boshdan kechirdi va bunda davom etmoqda. 500 ga yaqin islomiy moliyaviy muassasalar oddiy chakana moliyalashtirishdan tortib,korporativ tarkibli qimmatli qog'ozlarni chiqarish usullari bilan mablag'larni jalb etishga qadar bo'lgan keng miqyosdagi xizmatlarni taklif etmoqdalar. Bu esa mamlakatni islomiy moliyalashtirish tomonga yana bir qadam tashlashga undaydi. Xalqaro moliya-kredit tashkilotlari bilan,shu qatori,Islom taraqqiyot banki (ITB) bilan o'zaro hamkorlikni rivojlantirish O'zbekiston Respublikasida davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

2.Taxlil va natijalar muhokamasi.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar jahon hamjamiyatining mamlakatimizga bo'lgan qiziqishini tobora ortib borishiga sabab bo'ldi hamda uning xorijiy sarmoyalarga ochiqligi va xorijiy kompaniyalarning mamlakatimizda o'z biznesini yo'lga qo'yishga tayyorligini ta'minlab berdi. O'zbekistonda,xususan , moliya sohasida shariat me'yorlari asosida ishlaydigan bank ya'ni,Islom bankini yaratish salohiyaati mavjud.2018-yil sentyabr oyida "Islom taraqqiyoti guruhi kuni" anjumanida ilk bor ITB va O'zbekistonning yirik banklari o'rtasida o'zaro memorandum imzolandi va buni islom banklarini kirib kelishiga ilk qadam bo'ldi deyish mumkin.Ma'lumki Islom banklarining an'anaviy G'arb uslubidagi faoliyatidan tubdan farq qiladi.Buni quyida keltirilgan 1-jadval orqali ko'rishimiz mumkin.

1-jadval.

Xususiyatlari	An'anaviy banklarda	Islom banklarida
Kredit berish	Foizli	Foizsiz
Jamg'arma	Peniyali	Peniyasiz
To'lov muddati	Uzaytirilmaydi	Uzaytiriladi
Garov	Garovli	Garovsiz
Foyda va Zarar	Kreditorda	O'rtada (50%/50%)

Jadvaldan ko'rinib turibdiki,an'anaaviy va Islomiy moliyalashtirishning asosiy farqi foyda va zararni teng ikkiga bo'lishga asoslangan moliyalashtirish hisoblanadi, ya'ni,islomiy moliyalashtirish hamkorlik (sharikchilikka) asoslanadi. Har ikki tomon - bank ham mijoz ham shartnomaga ko'ra loyihadan keladigan foyda va zararni taqsimlab oladilar va shunga muvofiq,foйда olish uchun harakat qiladilar. Islomiy banklar o'z mijozlarining talablarini o'rgangan holda ijaraga berishlari mumkin. Bu holatda moliyalashtirishning asosi savdo hisoblanadi va Islomiy banklar o'z faoliyatini ikki shakldagi bank tizimi orqali amalga oshiradilar:birinchisi;islom fiqhi me'yorlariga butkul muvofiq tizim. Bunga misol qilib,Pokiston, Sudan va Eron bank tizimlarini keltirishimiz mumkin. Ikkinchisi; davlat organi tomonidan alohida tartibga

solinadigan va islomiy banklar faoliyati an'anaviy banklar bilan bir qatorda faoliyat yuritadigan dualistik tizim. To'laqonli islom banklari uchun bank faoliyatini shariat qoidalariga muvofiqligini tartibga solish markaziy bank va bank nazorati organlari orqali amalga oshiriladi. Islom banklari qoshida ish yuritadigan shariat kengashi bank bitimlarining islomiy moliyalashtirish qoidalariga to'g'ri kelishini nazorat qiladi. Tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, mijozlar mablag'larni jalb etishning qo'shimcha vositasi bo'lib xizmat qiladi, ya'ni ushbu vositalardan foydalanishda islom me'yorlariga rioya etishning kafolati sifatida qatnashadi. Islomiy banklarning operatsion (amaliy) faoliyati davlat va jismoniy shaxslar, moliyaviy muassasalar, iqtisodiyotning real sektori sub'yektlari o'rtasida moliyaviy vositachilik tamoyiliga asoslangan. Zamonaviy banklar singari islom banklari aktiv va passiv amaliyotlarni amalga oshirish vositasida pul jang'armalarini jalb etish va joylashtirishni nazarda tutadi. Bunda deposit mahsulotlar passiv amaliyotlarning asosini tashkil etadi. Aktiv amaliyotlar asosini esa mijozlar faoliyati yoki mijozlar bilan savdo bitimlarida ishtirok etishni moliyalashtirish mahsulotlari tashkil etadi.

Islomiy lizing hamda an'anaviy lizing o'rtasidagi farqlarga to'xtaladigan bo'lsak, an'anaviy bank mijoz bilan avval kelishilgan lizingni va keyin obyekt miqdorini 4 dan 1 qismini, yoki kelishilgan holda mijozdan pul oladi. Mijoz shartnomaga asosan to'lovni amalga oshiradi, so'ng mijozga tegishli foizda yillik foiz miqdori ifodalangan jadval taqdim etiladi. Agar mijoz to'lovni kechiktiradigan bo'lsa, shartnomada ko'rsatilganidek peniya to'lanadi. Islomiy lizingda esa bank mijozning talabiga asosan ob'yekt uchun tashkilot bilan shartnoma imzolaydi va to'lovni amalga oshiradi. Bank obyekt narxi ustiga o'z foydasini qo'shgan holda egalik huquqini oxirida o'tkazib berish sharti bilan ob'yektni taqdim etadi. To'lov kechikkan holatda peniya undirish taqiqlanadi. Ammo bu holat noqulaylik ketirib chiqarmasligi uchun shartnomaga intizomiy chora sifatida qo'shimchalar kiritishga ruxsat berilgan. Lekin bu undirilgan jarima faqat xayr-ehson uchun sarflanadi. Islomiy banklar an'anaviy banklardan aynan shu xususiyati bilan farqlanib turadi. Umumanolganda Islomiy bank mijozga tovarni ijaraga beradi, an'anaviy banklar esa tovar yoki mablag'ni foiz tariqasida beradi. O'zbekistonda an'anaviy banklar tizimida islom shariatiga muvofiq islomiy moliyalashtirishga doir qonunchilikning tashkil etilmagani buning asosiy sababi hisoblanadi. Yana bir sababi, eng avvalo islom moliyasi bo'yicha savodxonlikni oshirish borasida mamlakada islohotlar amalga oshirilishi kerakligi. Masalan, bank sifatida islom tamoyillari asosida kredit berishimiz uchun beriladigan resurslarni ham islom tamoyillari asosida jalb qilishimiz kerak bo'ladi. Ya'ni, fpizga deposit qabul qilib, islomiy bank tizimi bo'yicha kredit berish bu shariatga to'g'ri kelmaydi. Shuning uchun ham soha bo'yicha yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish eng asosiysi hisoblanadi. O'zbekistonda bu tarmoq bo'yicha kadrlar tayyorlash 2018-yilda O'zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasida boshlangan,

lekin, 2019-yida qabul jarayonlari amalga oshirilmadi. Bu holat o'z-o'zidan kadrlar yetishmasligini keltirib chiqaradi. Va bu esa yetarli malakaga ega bo'lmay turib, an'anaviy bank va islomiy bank tizimini tushunib bo'lmasligini anglatadi. Bu borada e'tibor berilishi zarur bo'lgan muhim vazifa mavjud bo'lib, u O'zbekistonda Islom moliyasi rivojlanishi uchun fatvo beradigan musulmonlar idorasining yo'qligidir. Bugungi kunda Malayziya va Indoneziya davlatlarida bunday idoralar mavjud. Bu juda nozik va murakkab jarayon hisoblanadi. Aynan shu nozik jihatlarini hisobga olmay turib, Islom bankini yo'lga qo'ydik deyish hech qanday manfaat keltirmaydi. Bunday ishlar bosqichma-bosqich amalga oshirilib, dastlab mikrokredit dashkilotlarida islom darchalarni ochish, keyin islomiy bank tizimiga o'tish maqsadga muvofiqdir.

3.Xulosa

Bugungi kunga kelib O'zbekiston aholisining qariyb 88%i musulmonlarni tashkil etadi. Bu esa O'zbekiston aholisining islomiy banklardan foydalanishga talab juda katta ekanligini ko'rsatadi. An'anaviy bank tizimidan foydalanishni ho'xlamagan aholi qatlami uchun islom banklari ayni muddao hisoblanadi. Islomiy bank tizimi mamlakat iqtisodiyotini sezilarli darajada o'stiradi va investitsiya hajmiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. O'zbekistonda Islomiy bank tizimini yo'lga qo'yilishi ishlatilmayotgan pul mablag'lari va jamg'armalarni tizimga jalb qilishga, yashirin iqtisodiyotni kamaytirish va tadbirkorlik faoliyatini oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Annual Report. Jordan Islamic Bank [Electronic resource].-2012
2. Grais W, Iqbal Z. Regulating Islamic financial institutions: World Bank Policy Research Working.-2004
3. O'zbekiston Respblikasi iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi online axborot xizmati: MINECONOMY.UZ
4. www.UzAnalitycs.uz
5. www.review.uz